

Common And Different Aspects Of Psychoanalysis In The Works Of Takhir Malik And Daniel Keys

Ziyaeva Shirin

Researcher, Uzbek State University of World Languages

Abstract

Literature is one of the most powerful means of revealing the subtle layers of the human psyche. Every writer, in their works, strives to reflect not only a chain of events but also the complex emotional processes taking place in the human heart. In this sense, psychological analysis has developed as a distinct field within literary studies and manifests itself in unique ways in the works of representatives of different periods and schools.

Adabiyot inson ruhiyatining nozik qatlamlarini yoritishda eng qudratli vositalardan biridir. Har bir yozuvchi o'z asarlarida nafaqat voqealar zanjirini, balki inson qalbida kechayotgan murakkab hissiy jarayonlarni ham ifoda etishga intiladi. Shu ma'noda psixologik tahlil adabiyotshunoslikda alohida yo'nalish sifatida shakllanib, turli davr va maktab vakillarining ijodida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Bu jarayon har bir millat adabiyotida o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, o'zbek adabiyotida Toxir Malik ijodi, Amerika adabiyotida esa Deniel Kiz asarlari psixologizmning yorqin namunalaridir. Har ikki yozuvchi turli muhitda yashagan bo'lsalar-da, ularning ijodini birlashtirib turadigan jihat – inson ruhiyatini chuqur tahlil qilishga intilishdir. Mazkur maqolada Toxir Malik va Deniel Kiz ijodida ruhiy tahlilning umumiy va farqli jihatlari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Toxir Malik (1946–2008) o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan bo'lib, asarlarida inson ruhiyatining murakkab tomonlarini yoritishga alohida e'tibor bergan. Uning "Shaytanat" turkum romanlari nafaqat kriminal voqealar bilan, balki insoniy fazilatlar, vijdon azobi, qo'rquv, muhabbat va nafrat kabi hissiyotlarning chuqur tahlili bilan ham ajralib turadi.

Toxir Malik qahramonlari ko'pincha ijtimoiy muhit va shaxsiy hissiyotlar o'rtasidagi

ziddiyatlarni boshdan kechiradi. Yozuvchi o'z asarlarida qahramonning tashqi harakatlaridan ko'ra uning ichki kechinmalariga urg'u beradi. Bu esa o'zbek adabiyotida psixologizmning chuqurlashganidan dalolat beradi.

Amerikalik yozuvchi Deniel Kiz (1927–2014) o'zbek kitobxoniga asosan "Eljernon uchun gular" "Flowers for Algernon" romani bilan mashhur. Bu asarda ruhiy tahlil markaziy o'rin tutadi: tafakkur darajasi sun'iy ravishda oshirilgan oddiy ishchi Charli Gordonning ichki dunyosi orqali insoniyatning eng muhim savollari qo'yiladi. Kiz o'z asarida voqealarni qahramonning kundalik hisobotlari ko'rinishida bayon qilib, ruhiy jarayonlarni bevosita qahramon tilidan ko'rsatadi. Natijada o'quvchi Charlining aqlan o'sishini, hissiy kechinmalarini, baxt sari izlanishlarini va fojiali yakunni chuqur his qiladi. Bu jihatdan Kiz ijodida psixologizm eksperimental shaklga ega.

Har ikkala yozuvchi asarlarida inson ruhiyatining murakkabliklarini asosiy markazga qo'yadi. Qahramonlarning vijdon azobi, ichki kurashlari, qo'rquv va iztiroblari chuqur tasvirlanadi. Asarlarda voqealar zanjiridan ko'ra, psixologik jarayonlar rivoji muhimroq o'rin tutadi. Har ikkisi ham o'quvchini qahramonning ichki dunyosi bilan yuzlashtirib, insoniylik haqidagi falsafiy muammolarni ko'taradi.

Toxir Malik qahramonlarining ruhiy dunyosini ko'proq ijtimoiy muhit va milliy

qadriyatlar bilan bog'liq holda yoritadi. Uning asarlarida jamiyatdagi adolatsizlik, jinoyat dunyosi va insoniy fazilatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Deniel Kiz esa ruhiy tahlilni ilmiy-fantastik tajriba asosida olib boradi. Uning qahramonida aql va his-tuyg'u o'rtasidagi nomutanosiblik psixologik fojia manbai sifatida ko'rsatiladi.

Toxir Malikda milliylik va axloqiy qadriyatlar, Kizda esa umum-insoniy muammolar ustuvor hisoblanadi.

Malik asarlarida ruhiy tahlil ko'proq voqealar ketma-ketligi ichida berilsa, Kizda u ichki monolog va kundalik hisobotlar orqali amalga oshiriladi.

Toxir Malik va Deniel Kiz turli adabiy maktablarga mansub bo'lsalar-da, ularni birlashtiruvchi jihat — inson ruhiyatini chuqur o'rganishga bo'lgan intilishdir. Malik asarlarida psixologizm milliy ruh, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy muhit bilan yo'g'rilgan bo'lsa, Kiz ijodida u ilmiy tajriba va falsafiy savollar asosida quriladi.

Shunday qilib, ruhiy tahlil har ikki yozuvchi ijodining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, ularning asarlarida qahramonlarning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va iztiroblari orqali insoniyatga xos umumiy muammolar ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Keyes, D. *Flowers for Algernon*. – New York: Harcourt, Brace & World, 1966.

Malik, T. *Shaytanat*. 1–5 kitoblar. – Toshkent: Sharq, 1993–2005.

Qodirov, B. “Adabiyotda psixologizm va uning badiiy tahlildagi o'rni.” – *Filologiya masalalari*, 2020, №2, 55–63-betlar.

Nazarov, Sh. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.

Saidova, M. *XX asr jahon adabiyotida psixologizm*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

Karimova, N. “Toxir Malik romanlarida ruhiy tahlil va milliylik.” – *O'zbek tili va adabiyoti*, 2021, №4, 120–128-betlar.